



Malika GAYBIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: mgaybiyeva@mail.ru

Y.f.d.prof. V.Topildiyev taqrizi asosida

THE ROLE OF THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM IN TEACHING YOUTH TO MODERN KNOWLEDGE AND SKILLS

Annotation

This scientific article examines the role and the professional education system in teaching young people modern knowledge and skills, and analyzes its methodology and results. The article is a scientific discussion about the adoption, problems and solutions of the professional education system in teaching young people modern knowledge and skills.

Key words: Youth, vocational education, innovation, professional education, vocational school, college, technical school, educational policy, vocational education teacher, laboratory.

РОЛЬ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ МОЛОДЕЖИ СОВРЕМЕННЫМ ЗНАНИЯМ И НАВЫКАМ

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются роль и системы профессионального образования в обучении молодежи современным знаниям и навыкам, анализируется ее методология и результаты. Статья представляет собой научную дискуссию о внедрении, проблемах и решениях системы профессионального образования в обучении молодежи современным знаниям и навыкам.

Ключевые слова: Молодежь, профессиональное образование, инновации, профессиональное образование, профессиональное училище, колледж, техникум, образовательная политика, преподаватель профессионального образования, лаборатория.

YOSHLARNI ZAMONAVIY BILIM VA KO'NIKMALARGA O'RGTISHDA PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINING O'RNI

Annotatsiya

Bu ilmiy maqola yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatishda professional ta'lism tizimining o'rni va roli mavzusini o'rganib, uning metodologiya va natijalarini tahlil qiladi. Maqola, yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatishda professional ta'lism tizimining o'zlashtirilishi, muammolari va yechimlari haqida ilmiy muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, kasb-hunar ta'limi, innovatsiya, professional ta'lism, kasb-hunar maktabi, kollej, texnikum, ta'lism siyosati, kasb ta'limi o'qituvchisi, laboratoriya.

Kirish. Yoshlar – har qachon yurt kelajagining yuksak rivojigidagi asosiy drayver sifatida katta rolga ega bo'lgan guruh. Ularning rivojlanishi va bilim-tajribalarining o'sishi kelajakda jamiyatimizni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy dunyodagi siyosat, iqtisod va madaniy jarayonlarining yanada intensivlashishi bilan, yoshlarda jismoni va intellektual tayyorgarliklarini oshirishda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga muvofiq ta'lism tizimi zarurdir. Yurtimizda ham so'nggi yillarda ta'lism siyosatida o'ziga xos yangi tendensiya shakllanib ulgurdi. O'zbekiston Respublikasida Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining ijtimoiy yo'nalishida amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida oliy ta'lism muassasalarida mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariغا muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifikasi belgilab[1] berilgan edi. Shuningdek, "Oliy ta'lism tizimini yanada rivojlantrish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-soni Qarorda "Ta'lism jarayonini, oliy ta'lismning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lism jarayonini sifat jihatidani yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish" vazifalari ko'rsatib o'tilgan[2]. Jumladan 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-soni Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism tizimini 2030 yilgacha rivojlantrish konsepsiysi"da "gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lism yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish" ko'rsatib o'tilgan[3].

Prezidentimiz tomonidan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlanishi Professional ta'lism tizimini

rivojlantrish uchun ham dasturiy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda[4]. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish hamda xalqaro mehnat bozori uchun kreativ, bir nechta tillarda so'zlasha oladigan kadrlar yetkazib berish maqsad qilingan. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 1.1. Ta'lism tizimi islohotlari bo'limining 6-bandida bir qancha ustivor vazifalar belgilab berilgan[5]. Jumladan: - 700 ta professional ta'lism muassasalarida ta'lism sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish;

14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish;

O'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo'nalishlarida 100 foizga yetkazish. Yuqorida belgilangan ustivor vazifalarning bajarilishida respublikamizning bir qator oliy ta'lism muassasalaridagi "Kasb ta'limi" yo'nalishlarining mas'uliyati va o'rni juda muhim. Bugungi ilm-fan, ishlab chiqarishning yuksak taraqqiyoti, kasb-hunar ta'lism tizimidagi tub o'zgarishlar ham oliy ta'lism muassasalarida tayyorlanayotgan kasb ta'limi o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliy yuklaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatishda ta'lismning integrativ xususiyati alohida ahamiyatga ega. Bugungi dunyoda so'nggi texnologiyalar hamda innovatsiyalar, masalan, 5G, sun'iy intellekt kabi, yangi imkoniyatlarni ochdi. Shu bilan birga, yoshlar integrativ ta'lism tizimida texnik va gumanitar bilimlarini, ijtimoiy bilimlarni birlashtirish orqali kichikdan to kattagacha bo'lgan barcha bilimlarni qamrab oladi. Zamonaviy ta'lism

texnologiyalarining o'rtacha qo'llanishini oshirish zarurati ham mavjud. Virtual ta'lif platformalari, onlays darslar, interaktiv darsliklar va ma'lumotlar bazalari o'quv jarayonlarini yanada masofaviy va innovativ qilishda katta rol o'yinaydi. Bu usullar yoshlarga o'rganish jarayonini yanada qiziquvchan va ta'sirli qiladi.

Yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatishda professional ta'lif tizimining o'mi mavzusi xorijiy olimlardan N.I.Kravsov, A.K.Radchenko, N.E.Erganova, Ye.V.Tkachenko, E.F.Zeer, N.S.Gluxanyuk, G.N.Jukov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston kasb ta'lifining rivojlanish jarayoni va tendensiyalari, mutaxassislarini kasbi faoliyatga tayyorlash muammolari, olyi ta'lif muassasalarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash mezonlari, bosqichlari va turlari pedagog olimlar A.R.Xodjabaev, R.X.Jo'raev, U.Nishanaliev, U.I.Inoyatov, O'.Q.Tolipov, Z.K.Ismailova, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, D.O.Ximmatliev, D.A.Mustafeva va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan hamda rivojlantirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu ilmiy maqolani tahlil qilish uchun quyidagi metodologiya va usullar ishlataldi:

Ta'lif tizimlarining tahlili: O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda mavjud yoshlar uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatishda amalga oshirilgan ta'lif tizimlarining tahlili amalga oshirildi. Bu tahlil, o'zbek va xorijiy oliygochlari, texnikumlar, kollejlardan tahlil qilingan.

Statistik analiz: Olingen ma'lumotlar statistik tahlil orqali baholanib, ta'lif tizimlarining o'zlashtirilishi, muammolar va yechimlari aniqlandi.

Xalqaro taqdimotlar va murojaatlar: O'zbekiston va xorijiy oliygochlari bilan murojaatlar va xalqaro taqdimotlar orqali, topilgan ma'lumotlar va tahlillar sinovdan o'tkazildi va ularning ilmiy faoliyatga ta'sirini o'rganishga harakat qilindi.

Bu metodologiya va usullar ilmiy maqolaning tahlilini va natijalarini aniqlashda keng qamrovli va obyektiv yondashadi.

Tahlil va natijalar. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining ustivor vazifalaridan biri 700 ta professional ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va moddiy-teknika bazasini takomillashtirishda eng muhim jihatlarga alohida e'tibor berilishi belgilab o'tilgan[6]. Professional ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va moddiy-teknika bazasini takomillashtirishda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan eng muhim jihatlar: 1. Zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etilishi.

Yangilangan o'quv dasturlari: Ta'lif muassasalarining o'quv dasturlari doimiy ravishda yangilanib turilishi, soha mutaxassislarining fikrlari va talabalar ehtiyojlarini inobatga olishi kerak.

2. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish.

O'qituvchilar malakasining doimiy oshirilishi: O'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyatlarini ta'lif sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3. Moddiy-teknika bazasini modernizatsiya qilish.

Zamonaviy texnologiyalar va o'quv vositalarini ta'minlash: Ta'lif jarayonida zamonaviy kompyuterlar, interaktiv doskalar va soha uchun zarur bo'lgan laboratoriya jihozlarini kabi texnologik vositalardan foydalanish muhim.

4. Amaliyot va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirish.

Amaliy tajriba bilan bog'liq o'quv modullarini kuchaytirish: Talabalar nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlanirishlari uchun zarur bo'lgan amaliyot imkoniyatlarini ta'minlash.

5. O'quv muassasasining ijtimoiy hamkorliklarini rivojlanirishi.

Sanoat va biznes bilan hamkorlik: Talabalar uchun amaliyot o'rinalarini, shuningdek, kelajakdagisi ish beruvchilar bilan aloqalarni ta'minlaydigan sanoat va biznes sektorlari bilan hamkorlikni rivojlanirishi.

6. Talabalar faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish.

Adolatli va shaffof baholash: Talabalar ilmiy va amaliy ko'nikmalarini aniq vaadolatli baholash tizimini yaratish, shuningdek, ularning shaxsisi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.

7. Ta'lif muassasasining infrastrukturasi.

Qulay o'quv muhiti: O'quv xonalarining, laboratoriyalarining, kutubxonalarining va sport inshootlarining zamonaviy va talabalarga qulay bo'lishi muhim.

8. Ta'lif muassasasining moliyaviy barqarorligi.

Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish: Ta'lif muassasasining moliyaviy resurslarni o'qituvchilarining malakasini oshirish, moddiy-teknika bazasini modernizatsiya qilish va ta'lif sifatini yaxshilashga yo'naltirish.

9. Talabalar va o'qituvchilarining psixologik holatiga e'tibor.

Psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlari: Ta'lif muassasalarida talabalar va o'qituvchilarining psixologik holatini yaxshilashga qaratilgan xizmatlar muhim ahamiyatga ega.

Kasb-hunar ta'lifining amaldagi holatida egallanadigan kasblarning murakkablik darajasi inobatga olimmagan bo'lib, barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'qish muddati 3 yil qilib belgilangan[7]. Endilikda esa tanlangan kasbning murakkabligiga qarab o'qish muddati 6 oydan 2 yilgacha qilib belgilanishi nazarda tutilgan[8]. Ayni paytdagi kasb-hunar kollejlari faqat o'rtal umumta'lif maktablarining 9-sinf bitiruvchilari qabul qilingan edi. Endi tashkil etilayotgan kollej va texnikumlarda esa bugunga qadar o'rtal maxsus yoki oly ma'lumot olgan, harbiy xizmatga borib kelgan, ikkinchi mutaxassislikni egallamoqchi bo'lgan, ishsiz qolish xavfi paydo bo'lgan, qisqasi har qanday boshqa hunar o'rganuvchi kishilar uchun ham ta'lif olish imkoniyati mavjud. Yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatishda professional ta'lif tizimining o'mi beqiyos.

Uzoq yillarda davomida kasb-hunar kollejlari faqat kunduzgi ta'lif shakliga ega edi. Kelgusidagi kollej va texnikumlarda ta'lif oluvchilarga qulaylik yaratish maqsadida ta'lifning kunduzidan tashqari kechki va sirtqi shakllari ham yo'lda qo'yildi[9].

Amaldagi kasb-hunar kollejlarda o'quv jarayoni asosan o'quv xonalarida nazariy ta'lif berish shaklida olib borildi hamda natijada yoshlar amaliyot jarayonlarida ko'plab qiyinchiliklarga uchradi. Rejalashtirilayotgan yangi tizimda kollej va texnikumlarning yo'nalishi hamda ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lif mazmuni amaldagi ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi ko'zda tutilgan. Tayyorlanadigan kasblar yo'nalishlarining o'quv rejalarida faqat umumkasbiy va kasbiy fanlar bloki qoldirilib, ushbu fanlardan amaliy mashg'ulotlarga ko'proq soat ajratilishi hisobiga nazariy ta'lif soatlarini bir muncha qisqartilishi rejalashtirilgan.

Bizningcha, hozirgi kunda olyi ta'lif muassasalarining kasb ta'limi (sohalar bo'yicha) bakalavrlar tayyorlash bo'yicha amaldagi o'quv rejalarini yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablarning bajarilishini yetarlicha ta'minlay olmaydi. Ularda asosan professional ta'lif muassasalarida yo'nalishlar bo'yicha kasbiy fanlardan nazariy mashg'ulotlar olib boruvchi kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik faoliyatiga mos keladigan kasbiy-pedagogik faoliyat e'tiborga olingan.

Bugungi kunda "Kasb ta'limi" (sohalar bo'yicha) ta'lif yo'nalishini tugatgan pedagoglar professional ta'lif muassasalarida kasb ta'limi ustasi lavozimida ham faoliyat olib boradilar. Masalan, "Kasb ta'limi" (qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash) [10] yo'nalishini tugatgan pedagoglar umumkasbiy va kasbiy fanlardan kasb ta'limi ustasi chilangarlik ishi, elektrgazpayvandlash ishi, mashina-traktor agregatlarini tuzish va boshqalardan o'quv amaliyotlaridan mashg'ulotlarni olib boradilar.

Xulosa va takliflar. Professional ta'lif tizimini rivojlanish uchun, skills-training, mentorlik dasturlari kasbiy maqsadlaridan kasb ta'limidagi foydalanish loyihalari, stajyorlik imkoniyatlaridan keng foydalanish. Interaktiv va onlays o'qitish shakllari, amaliyot va dasturlar o'qituvchilarini texnik vositalarni o'z ichiga olgan programmalar asosida ta'lif olishi yoshlarni mahalliy va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lib rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Quyidagi takliflar kasb ta'limi sohasidagi yangiliklarni qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga bo'ladi.

- Kengaytirilgan skills-training dasturlari: Ish bilan bog'liq quayliklarni oshirish uchun, kasbiy bilimlarni yanada rivojlanirishi yo'l qo'yuvchi skills-training dasturlarini joriy qilish;

- Kasb ta'limi yo'nalishlarining o'quv rejalarini hozirgi kundagi professional ta'limdagi o'zgarishlarga mos ravishda takomillashtirish;

- Professional ta'lim tizimida kasbiy mentorlik dasturlari: Kasb ta'limi o'qituvchilari yoki mentorlarning o'qitish va yordam berish bo'yicha respublika darajasidagi onlayn vebinarlar tashkil qilish;

- Bugungi kasb va turli sohalardagi ehtiyojlarni ta'lim dasturlariga kiritish: hozirgi zamonaviy kasb-hunarlar haqida ma'lumotlarni tizimli yangilab borish;

- Professional ta'lim tizimi dasturlari bo'yicha texnikum-kollejlar va universitetlar bilan hamkorlik - integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqish;

- Sirtqi ta'lim kurslari o'qitilish bilan bir qatorda belgilangan muddat asosida onlayn darslar tashkil qilish;

- Professional ta'lim tizimi uchun pedagogolarining yangi avlodini tayyorlashda kasb ta'limi sohasida amaliyot va dastur o'quvchilar uchun keng qamroqli o'sishiga ko'maklashuvchi texnik vositalarni o'z ichiga olgan yangi innovations shakldagi ta'lim dasturlari tuzilsin: 3D-printer, robotlar, texnik vositalar bilan amaliyot kurslarini tashkil etish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son - <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son - <https://lex.uz/docs/3171590>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son son Farmoni. – <https://lex.uz/ru/doccs/4545884>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son - <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
5. Kasb-hunar kollejlarida nimalar o'zgaradi? - <https://kun.uz/uz/35966289>
6. "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI TO'G'RISIDA - <https://uzbekistan2030.uz/uz-Latin/decreet/1>
7. Kollej va texnikumda sirtqi, kechki hamda dual ta'lim shaklida o'qishni istaganlar imtihonsiz qabul qilinadi - <https://www.gazeta.uz/oz/2022/09/30/professional-edu/>
8. "O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA"gi Vazirlar Mahkamasi qarori- <https://lex.uz/acts/-1205976>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.06.2003 yildagi 269-son - <https://lex.uz/docs/-738821?ONDATE=14.06.2003>